

**OLIY TA'LIMDA MASOFAVIY TA'LIMNI JORIY ETISH VA
SAMARADORLIKNI OSHISHIGA TA'SIR ETUVCHI ONLAYN TA'LIM
TIZIMLARI**

Oltiyeva Mohira G'ayrat qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *XXI asr texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonda har bir yosh nafaqat shaxsiy hayotida, balki ta'lim olishda ham zamonaviylikni targ'ib etadi. Ushbu maqolada shulardan biri hisoblangan masofaviy ta'lismi joriy etish o'zbek oliy ta'lismi sifatiga qanchalik ta'sir eta olishi, uni an'anaviy ta'lismi bilan qiyoslash orqali yuzaga kelgan ustunlik va kamchiliklar, xorij tajribasi, shuningdek, talaba va o'qituvchilar uchun yaratishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *onlayn ta'lismi, veb-kontent, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lismi platformasi, interaktivlik, onlayn qo'llanma, Coursera, LMS.*

Madaniy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta'lismi tizimidir. Raqamli iqtisodiyot, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning imkoniyati yordamida malakali kadrlarni tayyorlovchi mukammal tizimni tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi rivojining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Sababi har bir mamlakatdagi, har qanday sohaning rivojlanishi undagi kadrlarning malaka, tajriba va bilimlari asosida shakllanadi. Mustaqillikdan so'ng, 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan “Ta'lismi to'g'risida ”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida ”gi qonunlarning qabul qilinishi o'zbek yoshlarining ilmiy salohiyatini oshirishga katta yordam berdi. Bunga muvofiq O'zbekistonda ta'lismi quyidagi turlarga bo'lindi:

- a) maktabgacha ta'lismi;
- b) o'rta maxsus yoki umumiy o'rta ta'lismi;
- c) maktabdan tashqari ta'lismi (nodavlat notijorat tashkilotlar, sport, san'at maktablari, ijod uylari va boshqalar);
- d) professional ta'lismi;
- e) oliy ta'lismi;
- f) oliy ta'limgan keyingi ta'lismi;
- g) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish (milliy dasturlar).

So'nggi yillarda ta'limgan har bir turiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada kuchaymoqda. Buni zamonaviy dizayndagi maktablar, oliy ta'lismi muassasalari, xususiy universitetlar, xorijiy nufuzli universitetlarning filiallari soni kundan-kunga ortib borayotganidan bilib olish mumkin. Ta'limgan har qanday turi ahamiyatli bo'lishiga qaramay, aynan oliy ta'lismi yoshlarning kasbga doir bilimlarini chuqurroq egallashda o'zining muhim o'rniga ega. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan “2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi “Oliy ta'lismi tashkilotlarida masofaviy ta'lismi shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorni

qabul qildi. Bu qarorning asosiy maqsadi talabalar uchun iloji boricha qulaylik va imkoniyatlar yaratib berishdir. Ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, talabalarning qayerda istiqomat qilishidan qat’iy nazar, ta’lim dasturlarini yaxshi o’zlashtirishlarini ta’minlab berish, o’z qiziqishi, iqtidori va ehtiyojidan kelib chiqqan holda kasbiy salohiyatini oshirishga yo’naltirish qarorning asl mazmunidir.

Masofaviy ta’lim – bu o’quv jarayoniga xos bo’lgan barcha tarkibiy va tashkiliy qismlarni jam qilgan holda, internet texnologiyalari yoki boshqa texnik vositalar yordamida o’qituvchi va talabalar o’rtasida masofadan turib mashg’ulotlarning tashkil etilishi. Tarkibiy-tashkiliy qism deganda darsning maqsadi, mazmuni, tashkil qilish uchun kerakli o’quv qurollar va foydalaniladigan qo’llanmalar tushuniladi.

London universiteti 1858-yilda o’zining maxsus dasturini yaratgan holda masofaviy ta’lim darajalarini taklif qilgan dunyodagi birinchi universitet bo’lgan edi. Bu hodisa onlayn o’qitish tizimining boshlanishi bo’ldi va hozirgi kunda bu tizim zamonaviy ta’limning eng muhim va ommalashib borayotgan shakliga aylandi.

Dunyoning ishonchli reytingi hisoblangan QS World Ranking ning ma’lumotlariga ko’ra 2022-yilda masofaviy ta’lim bo‘yicha quyidagi nufuzli universitetlar TOP 10 talikka kirgan.

1. University College London.
2. Columbia University.
3. University of Edinburgh.
4. Johns Hopkins University.
5. The University of Manchester.
6. Northwestern University.
7. King’s College London.
8. University of California, Los Angeles.
9. University of Sydney.
10. Monash University.

Shu bilan bir qatorda, O’zbekistonda ham masofaviy ta’limni joriy qilganda yuqoridaqgi universitetlarning ta’lim metodlaridan foydalanilsa yaxshi samara beradi.

Ta’lim berishda qo’llaniladigan o’quv qurilmalari ko‘p bo’lishiga qaramay, ular orasida LMS sistemasi ham o’zining ahamiyatli o’rniga ega. LMS (Learning Management System)ni masofaviy ta’limni boshqarishga yordam beruvchi maxsus dasturiy ta’milot ilova(platforma)si deb atash mumkin. Uning birinchi joriy etilishi 1990-yillarning oxirida bo’lgan bo’lsa-da, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’limga katta e’tibor qaratilishi tufayli undan foydalanish sezilarli darajada o’sdi. Sababi zamonaviy hisoblanmish LMS o’quv ma’lumotlarini olish uchun aqli va qulay algoritmlardan foydalanadi. Shuningdek, LMS barcha turdagи kontentni, jumladan, videolar, kurslar, seminarlar va turli ko‘rinishdagi hujjalarni yetkazib bera oladi. Uning quyidagi 3 ta asosiy xususiyati mavjud.

1. O’zaro hamkorlik: LMS ma’lumotlarni bir tizimdan ikkinchisiga almashish imkonini beradi.
2. Kirish imkoniyati: jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar ham mustaqil ravishda tizimdan foydalanishi mumkin.

3. Moslashuvchanlik: LMS foydalanuvchilarining dasturiy ta'minoti doimiy ravishda yangilanadi.

LMS 1990-yildan beri faol bo'lib, bugungi kundagi o'zgaruvchan jamiyatga moslashishda davom etmoqda. Lekin maksimal natijaga erishish uchun birinchidan, o'qituvchilar o'z o'quv dasturlarini yuzma-yuz ma'ruzalardan onlayn ma'ruzalarga moslashtirishga tayyor bo'lishlari kerak. Ikkinchidan, darslarni maxsus yordamchi materiallardan foydalangan holda o'tishlari kerak, aks holda, interaktivlik kamayib, talabalar faolligining pasayish ehtimoli katta.

Aslida, LMS platformasining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, uni SWOT tahlil usuli yordamida ko'rib chiqish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

S-Strengths (kuchli jihatlari-ustunliklari)

- Foydalanuvchi – administrator, talaba, o'qituvchilar uchun oson boshqarish va foydalanish imkoniyati mavjud;
- platformadan foydalanish bepul;
- tizim kurslar va foydalanuvchilarining soni oshishiga qaramay bir maromda, muommolarsiz ishlay oladi;
- talabalarning har bir fandan o'zlashtirish qobiliyatini avtomatik ravishda doimiy ko'rsatib turilishi qaysi fanga ko'proq e'tibor qaratish kerak ekanligi haqida ogohlantiradi;
- o'qituvchilar bemalol onlayn vazifalar berishi, imtihonlar, testlar tashkil etishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan;
- talaba va o'qituvchilarining ma'suliyatli ravishda vazifalarni joylashi va baholashini nazoratga oladi

W-Weaknesses (nuqsonlar)

- LMSda yangilanish vaqtida muommolar yuzaga kelishi sababli, tizim ma'lum bir vaqt oralig'ida ishlamay qolishi mumkin;
- talabada biror muommo yuzaga kelsa, to'g'ridan-to'g'ri tizim orqali administratorga yoki ustozga murojaat qilish imkoniyati yo'q;
- fayl formatlarining bir qancha turidan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, ba'zida ayrim fayllar mos kelmaganligi tufayli vazifani yuklashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin;
- topshirish muddati yaqin qolgan vazifalar uchun ogohlantiruvchi xabar kelmasligi talabalarga noqulayliklar tug'diradi;
- har qanday aloqa vositalari iOS va Android qurilmalari uchun moslashtirilgan bo'lsa-da, LMSning maxsus ilovasi (App) yo'q, shu sababi foydalanuvchi doimo internet orqali platformaga kirishga majbur.

O-Opportunities (imkoniyatlar)

- virtual ta'limni rivojlanishi;
- talabalar ancha oldin o'tilgan mavzu materiallaridan istagan vaqtida foydalanishi mumkin, bu o'tilgan darsni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

T-Threats (xavflar)

• foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari hamda login/parollari tizimda mavjudligi bois, platforma yaxshi himoyalovchi vosita yordamida xavfsizlantirilmasa, ma'lumotlarning tarqab ketish ehtimoli mavjud.

Tahlildan ko'rinish turibdiki, agar yuzaga keladigan muommo va ayrim kamchiliklar bartaraf etilsa, LMS platformasini o'zbek ta'lim tizimida qo'llash barcha yoshlar uchun juda qulay ta'lim olish imkoniyatlarini taklif etadi.

LMSdan farqli ravishda, hozirgi kunda butun dunyoga mashhur onlayn ta'lim platformalaridan biri – COURSERA nafaqat talabalar, balki mustaqil tarzda yangi bilimlarni o'rganmoqchi bo'lgan izlanuvchilarning orasida juda ham mashhur. Coursera barchaga dunyoning istalgan nuqtasidan, har qanday sohaga oid onlayn, bepul va pulli kurslarni mustaqil tarzda o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Hozirda bu platforma dunyoning 275 dan ortiq nufuzli universitetlari bilan hamkorlik olib boryapti. Statistika bo'yicha, 2017-yilning o'zida 24 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega bo'lgan va kurslari 4300 tani tashkil qilgan. Bunday onlayn platformalarning mavjudligi esa talabalarning o'z ustida ko'proq ishlashi, yangi sohalarni o'rganishi, izlanishi uchun asosiy kalit vazifasini o'taydi. O'zbek talabalari ham avval ushbu platformadan bepul ro'yxatdan o'tib, so'ngra bemalol foydalanishi mumkin. Internetda Courseradek ta'limni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar juda ham ko'p, masalan edX, Khan Academy, Udacity va boshqalar. Yoshlardan talab qilinadigan birgina narsa mustaqil izlanish ko'nikmasini rivojlantirgan holda, ishtiyoq bilan shu kabi kurslarni qidirib topish va ulardan manfaatli foydalana olishni bilish, xolos.

Aslida, masofaviy ta'limning joriy etilishi nafaqat talabalarga, balki o'qituvchilarning ham o'z ustida ishlashiga turki bo'ladi. Ular malakasini oshirish uchun ko'proq vaqtga ega bo'lishadi. Shuningdek, an'anaviy ta'limda yuzma-yuz muloqot asosiy ahamiyat kasb etsa, masofaviy ta'lim tizimi orqali xorijlik professorlar yoki xorijda oliv ta'limdan keyingi ta'limni davom ettirayotgan yaxshi tajribasiga ega, o'zbek o'qituvchilarini jalb qilish orqali butun respublikadagi ta'limga biroz bo'lsa-da yangilik kiritish mumkin. Masofaviy ta'limning "moslashuvchan" grafikdagi ishlarni taklif etishi o'qituvchilar uchun "work-life balance"ni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ya'ni endi ustozlar nafaqat o'z ishiga, balki oilasi va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarga ham ko'proq e'tibor bera oladi. Shu bilan bir qatorda, ular ham talabalar singari multimediali taqdimotlar yoki interaktiv onlayn mashqlar yaratish uchun zamonaviy texnologik uskunalardan foydalanishni o'rganishi mumkin. Oxirgi o'qitish metodlaridan xabardor bo'lib borish imkoniyati esa talabalarni darsga yaxshiroq jalb qilishga yordam beradi. Yuzma-yuz emas, balki masofadan turib mashg'ulotlar tashkil etilsada, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot jarayonlari saqlab qolinishi kerak. O'qituvchilar talabalarning faolligini ta'minlash uchun zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanishlari juda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Synchronous and Asynchronous Learning metodi. Bunda talaba mavzu yuzasidan ham guruh va o'qituvchi bilan jonli suhabat quradi, ham vazifani bajarishi uchun o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda boshqa qo'shimcha manbalardan foydalanadi. Bu metod talabani mustaqil izlanish ko'nikmasini juda yaxshi rivojlantiradi, sababi u ustozining tayyorgina o'quv materiallaridan emas, balki o'zi izlab topgan, tushunadigan va qiziqqan manba orqali vazifani bajaradi. Shuningdek, talaba yoshlar biroz ma'suliyatli bo'lishni o'rganishadi. Chunki masofaviy ta'limda yaxshi bilim

olish ham talaba, ham o‘qituvchining ma’suliyatlilik darajasi bilan kafolatlanadi. Bu metod nafaqat masofaviy ta’lim berish jarayonlarida, balki an’anaviy ta’lim tizimida ham yaxshi tashkil etilsa, talabalarining malakali kadr bo‘lib yetishishlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, albatta.

Ammo, shunday yo‘nalishlari borki, ularda masofaviy ta’limni joriy qilish juda katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Masalan, tibbiyat sohasi. Har bir o‘tilgan mavzu uchun amaliyot talab qiladi. San’at bilan bog‘liq ta’lim yo‘nalishlari hunarmandchilik, haykaltaroshlik yoki sport sohasidagi mashg‘ulotlarni masofaviy tashkil etish butunlay imkonsiz. Shu sabablar tufayli, bu tizimning har bir jihatini o‘rganib, O‘zbekistondagi OTMlarning asosiy qismi qaysi sohani o‘rgatishga mo‘ljallanganini hisobga olgan holda joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilganda, masofaviy va an’anaviy ta’lim o‘ziga xos xususiyatlari, ustunliklari, kamchiliklari va qulayliklari bilan har bir talabaning ilm olishida o‘zgacha ta’sir ko‘rsatadi. Uning ba’zi bir kamchiliklari bo‘lishiga qaramay, ta’lim sifatini oshirish ta’siri juda yuqoridir. Talabalar faqatgina nazariy bilimlarni egallamasdan, balki o‘z sohasida ish topib, atigi bir necha oylik amaliyot emas, aksincha yillik tajribaga ega bo‘lishi mumkin. Masofaviy ta’lim korrupsiyasiz,adolatli o‘zbek oliy ta’lim tizimini tashkil etishga hamda boshqa ijobjiy o‘zgarishlar, yangiliklar amalga oshishiga asosiy turtki bo‘la oladi, bu esa ilmli, zukko o‘zbek yoshlari uchun chet elda emas, balki o‘z yurtidagi ta’lim sifatidan qoniqib, shu yerda o‘qishni davom ettirgan holda Vatanini rivojlantirishga ko‘proq o‘z hissalarini qo‘sish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Ilmiy manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1997-yilda qabul qilgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.
2. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Рахимова, Н.Х. Основные этапы перехода на кредитно-модульную систему. “Актуальная наука”. — 2021. — №43. — С. 44-46
4. Н.Т. Yusupov, S.M. Usanov, I.X. Ibragimov. Oliy ta’limda masofaviy ta’limning samaradorligi.
5. Горовик А.А., Халилов З.Ш. ОСНОВЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОГО ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021.
6. Sobirov.I.I. Moslashuvchan onlayn ta’lim tizimi. “ Экономика и социум” №7(86) 2021.
7. Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари ва илгор технологияларни татбиқ этиш маркази. “МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ БЎЙИЧА

МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА”. Ўзбекистонда олий таълим / 2023 / №1
Высшее образование в Узбекистане.

8. Низомхонов, С. Э. Перспективы развития дистанционного образования в Узбекистане / С. Э. Низомхонов. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 11 (46). — С. 464-466

Elektron manbalar

9. <https://lex.uz>

10. <https://fanvatalim>.

11. <https://edujournal.uz>

12. www.iupr.ru